



9. Левина Р.Е., Никашина Н.А, Характеристика общего недоразвития речи у детей / основы теории и практики логопедии. Влосос 2002
10. Логопедия: Учеб. для студ. дефектол. фак. пед. высш. учеб. Л69 заведений / Под ред. Л.С. Волковой, С.Н. Шаховской. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003. — 680 с. — (Коррекционная педагогика).

LOGOPEDIYA FANIGA TARIXIY VOQEALAR VA IXTIROLARNING ZAMONAVIY NUTQ TERAPIYASIGA TA’SIRI

Samarqand Kimyo Xalqaro Universiteti
Logopediya yo‘nalishi MSPD-S-251U talabasi
Abdullayeva Fotima Mamatxonovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada logopediya fanining tarixiy shakllanish jarayoni, unga tarixiy voqealar, ilmiy kashfiyotlar va zamonaviy texnologik ixtirolarning ta’siri yoritilgan. Dastlab logopediya alohida fan sifatida e’tirof etilmagan, nutq nuqsonlariga yetarlicha e’tibor berilmagan davrlar haqida so‘z yuritiladi. Keyinchalik tibbiyot va psixologiya fanlarining rivojlanishi natijasida nutq buzilishlari ilmiy asosda o‘rganila boshlagani, maxsus tuzatish metodlari ishlab chiqilgani ta’kidlanadi. Hozirgi davrda logopediya fanining zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt, neyrofanlar va innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashgani, natijada bu yo‘nalishning chuqur o‘rganilayotgan sohaga aylangani ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: logopediya, nutq nuqsonlari, tarixiy rivojlanish, ilmiy izlanishlar, texnologik ixtirolar, sun’iy intellekt, neyropsixologiya, innovatsiya.

ВЛИЯНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ СОБЫТИЙ И ИЗОБРЕТЕНИЙ НА СОВРЕМЕННУЮ ЛОГОПЕДИЮ

Самаркандский международный университет химии
Кафедра логопедии, студентка MSPD-S-251U
Абдуллаева Фотима Маматхоновна

Аннотация: В данной статье рассматривается историческое формирование логопедии как научной дисциплины, влияние исторических событий, научных открытий и современных технологических изобретений на её развитие. Отмечается, что в ранние периоды логопедия не рассматривалась как самостоятельная наука, а речевые нарушения не привлекали должного внимания. С развитием медицины и психологии началось научное изучение речевых расстройств и разработка коррекционных методов. В современный период логопедия интегрируется с новейшими технологиями, искусственным интеллектом и нейронауками, что способствует углублённому исследованию этой области и повышению эффективности речевой терапии.

Ключевые слова: логопедия, речевые нарушения, историческое развитие, научные исследования, технологические изобретения, искусственный интеллект, нейropsихология, инновации.

THE INFLUENCE OF HISTORICAL EVENTS AND INVENTIONS ON MODERN SPEECH THERAPY

Samarqand International University of Chemistry
Logopedics Department, MSPD-S-251U Student
Abdullayeva Fotima Mamatkhonovna

Abstract: This article analyzes the historical formation of speech therapy (logopaedics) as a scientific discipline and examines the influence of historical events, scientific discoveries, and modern technological innovations on its development. It highlights that in earlier times, speech disorders were not given proper attention, and speech therapy was not recognized as an independent field. With the advancement of medicine and psychology, speech impairments began to be studied scientifically, and



corrective methods were developed. In the modern era, speech therapy has integrated with advanced technologies, artificial intelligence, and neuroscience, leading to a deeper understanding of speech processes and more effective therapeutic approaches.

Keywords: logopaedics, speech disorders, historical development, scientific research, technological inventions, artificial intelligence, neuropsychology, innovation.

Logopediya — inson nutqidagi turli nuqsonlarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olishga qaratilgan fan sohasi bo‘lib, u pedagogika, psixologiya, tibbiyot va lingvistika bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda. Hozirda logopediya mustaqil ilmiy soha sifatida e’tirof etilsa-da, uning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlar, ilmiy kashfiyotlar va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Dastlabki davrlarda, ya’ni qadimgi sivilizatsiyalar davrida nutq nuqsonlari tibbiy yoki ijtimoiy muammo sifatida qaralmas edi. Insonda nutqdagi kamchiliklar irsiy yoki ilohiy jazoga teng deb baholangan, natijada bunday insonlar jamiyat hayotidan chetda qolgan. Qadimgi Misr, Yunoniston va Rim manbalarida ayrim nutq buzilishlari haqida yozilgan bo‘lsa-da, ularning sabablari va tuzatish usullari haqida ilmiy yondashuv mavjud emas edi. Gippokrat, Aristotel, Galen singari olimlar nutq apparati, til va tovush hosil bo‘lish jarayonlari haqida dastlabki fikrlarni bildirgan bo‘lsalar ham, ularning qarashlari ko‘proq falsafiy va kuzatuvchanlik darajasida edi. O‘rta asrlarda esa nutq nuqsonlariga nisbatan e’tibor yanada susaydi. U davrda tibbiy fanlar, xususan, nevrologiya va psixologiya hali rivojlanmaganligi sababli nutqdagi buzilishlar aniq sabablar asosida tahlil qilinmagan. Ayrim manbalarda nutqning yo‘qolishi yoki talaffuzdagi buzilishlar "ruhiy kasallik", "jazolanish" yoki "irsiy holat" deb talqin qilingan. Bu davrda logopediya mustaqil fan sifatida shakllanmagan, balki alohida kuzatuvlar darajasida mavjud bo‘lgan.

XIX asrga kelib, tibbiyot va psixologiya fanlarining rivojlanishi natijasida inson nutqini ilmiy asosda o‘rganish boshlangan. Fransuz olimi Pol Broka va nemis olimi Karl Vernike tomonidan nutq markazlarining miyada joylashuvi kashf etilishi logopediya tarixida muhim burilish yasadi. Ularning tadqiqotlari natijasida nutq buzilishlari nafaqat psixologik, balki fiziologik omillar bilan ham bog‘liqligi aniqlangan. Shu davrdan boshlab nutqni tiklash, duduqlanishni kamaytirish, talaffuzni to‘g‘rilash bo‘yicha maxsus mashqlar, metodlar ishlab chiqila boshladi. XX asrning boshlarida esa logopediya fani pedagogika bilan uzviy aloqada shakllanib, nutq nuqsonlari turlari — afaziya, alaliya, dizartriya, rinolaliya, duduqlanish kabi holatlar tizimli o‘rganila boshlandi. Zamonaviy davrda logopediya faniga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Texnologik taraqqiyot, tibbiy diagnostika vositalarining rivojlanishi va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida logopedik faoliyat yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda nutq buzilishlarini erta aniqlash, ularni to‘g‘rilash va rehabilitatsiya qilishda sun‘iy intellekt (AI), neyrotexnologiyalar, ovoz tahlil dasturlari, virtual reallik (VR) tizimlari va maxsus logopedik ilovalar keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, logopedik mashg‘ulotlar onlayn platformalar orqali olib borilayotganligi, interaktiv metodlar yordamida bolalar va kattalarda nutq faoliyatini rivojlantirish imkoniyati yaratilgan.

Ilmiy izlanishlar logopediya fanining yanada takomillashishiga xizmat qilmoqda. Neyropsixologiya, biotibbiyot muhandisligi, akustika va lingvistika sohalari bilan hamkorlikda olib borilayotgan tadqiqotlar nutq apparati faoliyatini chuqur o‘rganish imkonini bermiqda. Miya faoliyati va nutq mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil etish asosida yangi korreksion dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, nutqning yo‘qotilishi (afaziya) yoki talaffuzdagi buzilishlarni tiklashda neyroplastiklik tamoyiliga asoslangan metodlar yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda logopediya inson shaxsining ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligida muhim o‘rin tutuvchi fan sifatida qaralmoqda. Tarixiy jarayonlarda e’tibordan chetda qolgan bu yo‘nalish endilikda chuqur ilmiy asosga ega bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘un holda rivojlanmoqda. Shuningdek, nutq apparatini sun‘iy yo‘l bilan nazorat qilish imkonini beruvchi sensor texnologiyalar, tovush analizatorlari va raqamli o‘qitish vositalari logopedik amaliyotda keng joriy etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, logopediya fani dastlab e’tiborsiz soha sifatida shakllangan bo‘lsa-da, ilmiy-texnik taraqqiyot, inson psixologiyasiga bo‘lgan qiziqish va ijtimoiy ehtiyojlar tufayli u hozirda mustaqil, chuqur o‘rganilayotgan, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fan darajasiga ko‘tarildi. Tarixiy voqealar, ilmiy izlanishlar va zamonaviy ixtirolar logopediyaning bugungi yutuqlarini belgilab, uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yanada kengaytirib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati



1. O'rmonjonov Azizbek Muhammadjon o'g'li. (2025). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MUSIQIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI. Kelajak o'qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(1), 470-475.
2. Ramziddin Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA'NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHIIYATI. Kelajak o'qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(2), 36-40.
3. O'rmonjonov Azizbek Muhammadjon o'g'li. (2025). INKLYUZIV TA'LIMNING MOHIYATI, MAQSADI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. (2025). Kelajak o'qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(2), 701-710.
4. Tursunov Ramziddin Abdixalil-o'g'li. (2025). JAMIYAT HAYOTIDA IJTIMOIIY ONG VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGI. TA'LIM VA TARAQQIYOT, 4(4), 324-330.

DUDUQLANUVCHI BOLALAR NUTQINING RIVOJLANGANLIK HOLATINI O'RGANISH METODIKASI

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Logopediya yo'nalishi MSPD-1U talabasi
G'aniyeva Zilola Komil qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada duduqlanuvchi bolalarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirish, ularning nutqiy faolligini oshirish va tortinchoqlik darajasining shaxslararo munosabatlarga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot davomida logoped, psixolog va pedagoglarning hamkorlikdagi korreksion-pedagogik ishlari, o'yinli va ko'rgazmali metodlardan foydalanish samaradorligi tahlil qilindi. Natijalar duduqlanuvchi bolalarda nutq izchilligi, so'z boyligi hamda muloqotdagi ishonchning ortishiga olib kelganini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: duduqlanish, kommunikativ faoliyat, tortinchoqlik, logoped, psixologik yordam, korreksion yondashuv, nutqni rivojlantirish, o'yinli metod.

МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ УРОВНЯ РАЗВИТИЯ РЕЧИ У ЗАИКАЮЩИХСЯ ДЕТЕЙ

Ташкентский международный химический университет
Направление: Логопедия
Студент группы MSPD-1U
Ганиева Зилола Комил кизи

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития коммуникативной деятельности у заикающихся детей, повышения их речевой активности и влияние степени застенчивости на межличностные отношения. В процессе исследования анализировалась эффективность коррекционно-педагогической работы логопеда, психолога и педагога, использование игровых и наглядных методов обучения. Результаты показали положительную динамику в развитии связной речи, обогащении словарного запаса и повышении уверенности в общении у заикающихся детей.

Ключевые слова: заикание, коммуникативная деятельность, застенчивость, логопед, психологическая поддержка, коррекционная работа, развитие речи, игровые методы.

METHODOLOGY FOR STUDYING THE LEVEL OF SPEECH DEVELOPMENT IN CHILDREN WHO STUTTER

Tashkent International University of Chemistry
Department: Speech Therapy
Student of Group MSPD-1U
Ganiyeva Zilola Komil qizi

Abstract: This article examines the development of communicative activity in stuttering children, the increase of their speech activity, and the influence of shyness on interpersonal relationships. The study analyzed the effectiveness of corrective and pedagogical work conducted by speech therapists,